



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM
O'ZGARISHI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI
GIDROMETEOROLOGIYA
XIZMATI AGENTLIGI

Gidrometeorologiya xizmati agentligi
faoliyatini ochiqligini ta'minlashga doir
qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida

F A R M O Y I S H

41-F-son 28.04.2025y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son, 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son farmonlarida belgilab berilgan topshiriqlar, shuningdek, Agentlik tomonidan ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish hamda 2024-yilda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish **maqsadida**:

1. O'zgidromet Markaziy apparati, tizim tashkilotlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va hududiy gidrometeorologiya markazlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son, 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son farmonlari ijrosini ta'minlash doimiy nazoratga olinsin.

2. O'zgidrometda ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish bo'yicha ishchi quyidagi tarkibda **ishchi guruh tashkil qilinsin**:

Ishchi guruh rahbari: F. Safarov – direktor maslahatchisi

Ishchi guruh a'zolari: Q. Kulumbetov – direktor maslahatchisi,
A.Mavlyanov – GmKAMSM boshqarma boshlig'i,
S. Isxakova – Bosh yuriskonsult,
K. Baxromov – ijro nazorati mutaxassisi.

3. **Ishchi guruhga har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5 sanasiga qadar** ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijro holatini tanqidiy ko'rib chiqish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni **bartaraf etish choralari ko'rish vazifalari yuklansin**.

4. **Ishchi guruh** ochiqlikka oid malumotlar mas'ul tomonidan o'z vaqtida taqdim etilmaganda yoki joylashtirishga mas'ul xodimlar tomonidan elon qilish kechikishiga sabab bo'lgan xollarda mas'ul xodimlarga **nisbatan qat'iy intizomiy choralar ko'rish** bo'yicha Rahbariyatga yozma bildirgi kiritilsin.

5. Ochiq ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga hamda O'zgidromet rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar va uni tayyorlashga **mas'ul xodimlar**, taqdim etish muddatlari **ro'yxati 1-8-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin**.

6. Mas'ul xodimlar ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 910-son qarori bilan tasdiqlangan shakllar asosida e'lon qilinishi, ma'lumotlarni lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilida hamda rus tilida tayyorlanishini ta'minlasin.

7. Mas'ul xodimlarga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175-moddasiga asosan byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash tartibini buzish mas'ul (mansabdor) shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining **2 barobari miqdorida jarima** solish belgilanganligi eslatib o'tilsin.

8. Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – matbuot kotibi (**Tashxodjaeva**):

bir hafta muddatda joriy yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar, xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi rejalashtirilgan materiallar, ularning e'lon qilinishi muddatlari, mas'ullar bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqsin**, Rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritsin hamda ijrosini nazorat qilsin.

Hududiy gidrometeorologiya markazlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni ulardan qabul qilish va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish bo'yicha xamkorlikdagi **reja ishlab chiqsin**.

9. Axborot xizmati (Tashxodjayeva) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi-bosh mutaxassisi (lavozi bo'yicha) **har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5 sanasiga qadar** O'zgidrometda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini (slayd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar) e'lon qilish choralari ko'rsin.

10. Inson resurslarini boshqarish bo'limi (**Unorova**) Agentlikda ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlari tashkil etsin, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-learning" elektron platformasi orqali onlayn malaka oshirishini ta'minlasin.

11. Mazkur farmoyish ijrosi nazoratini Agentlik direktor maslahatchisi F. Safarov zimmasiga yuklansin.

Direktor



Sh. Khabibullayev